XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 6-dekabr VII-22-182-7-0-K/25 Samarqand viloyati

Ishtixon tumanidagi aholi punkti nomini o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4- va 9-moddalariga muvofiq Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 8-oktabrdagi yig‘ilish bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 23-oktabrdagi (03/08-12097-son) ekspertiza xulosasini inobatga olib, Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining yettinchi chaqiriq, yigirma ikkinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 8-oktabrdagi yig‘ilish bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 23-oktabrdagi (03/08-12097-son) ekspertiza xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishtixon tumanidagi aholi punkti nomi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2013-yil 28-dekabrdagi “Samarqand viloyati hududidagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga mos kelmaydigan nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risida” 257-29-son qarori 1-ilovasi Ishtixon tumani bo‘yicha qismining 2-raqami o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. O‘zbekiston mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi (I.Jabborov), viloyat Statistika boshqarmasi (Sh.Abdiyev), Davlat kadastrlari palatasi viloyat

boshqarmasi (R.Xatamov), Ishtixon tumani hokimligi (F.Ruziyev) mazkur qaror ilovasida ko‘rsatilgan aholi punkti nomini belgilangan tartibda statistik hisobotlarda aks ettirilishini va ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

5. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (T.Aripov), viloyat Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi (S.Mamatqulov), Ishtixon tumani hokimligi (F.Ruziyev) o‘zgartirilgan aholi punktiga aholini ro‘yxatga qo‘yish hamda tegishli yo‘l belgilarini o‘zgartirish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

6. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (M.Ixtiyarov), viloyat hokimligi huzuridagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” MChJ (N.Norbekov) mazkur qarorni “Zarafshon” gazetasida chop etilishini hamda Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasiga va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga o‘rnatilgan tartibda joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Viloyat hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Sh.Temirov) mazkur aholi punkti nomini **10 kun muddatda** davlat reyestri bazasiga kiritish choralarini ko‘rsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Djurakulov) hamda viloyat hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Sh.Temirov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Sh.Negmatov**

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2025-yil 6-dekabrdagi
VII-22-182-7-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Ishtixon tumanidagi aholi punkti nomini o‘zgartirish to‘g‘risida

T/r	**Geografik obyektning joylashgan o‘rni**	**Geografik obyektning amaldagi nomi**	**Geografik obyektning o‘z garay otgan nomi**	**Respublika ekspertiza komissiyasi xulosasi**
1.	Ishtixon tumani	Suyritepa	Quyi Beshbola	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq